

## SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TIL O'RGANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

**Karimova Mardona Keldiyor qizi**

O'zDJTU Sharq filologiyasi Turk tili fakulteti 2522 guruh talabasi  
Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sun'iy intellekt asosida til o'rganish jarayonining zamonaviy holati, uning imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining til kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli, shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etishdagi ahamiyati va o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalariga ta'siri yoritiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda yuzaga keladigan muammolar, jumladan, texnologiyaga haddan tashqari bog'liqlik, ma'lumotlar xavfsizligi va pedagogik muvozanat masalalari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali til o'rganish jarayonini yanada takomillashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, til o'rganish til kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, onlayn ta'lim, tilni o'qitish metodikasi, avtomatlashtirilgan o'rganish, muammolar va imkoniyatlar

**Аннотация.** В данной статье анализируются современное состояние, возможности и проблемы изучения языков на основе Искусственный интеллект. Особое внимание уделяется роли технологий искусственного интеллекта в развитии языковой компетенции, организации персонализированного обучения и формировании навыков самостоятельного обучения. Также рассматриваются основные проблемы, такие как чрезмерная зависимость от технологий, вопросы безопасности данных и сохранение педагогического баланса. Результаты исследования показывают, что эффективное использование ИИ способствует значительному улучшению процесса изучения языков.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, изучение языка, языковая компетенция, цифровые технологии, персонализированное обучение, онлайн-образование, методика обучения, автоматизированное обучение, проблемы и возможности

**Abstract:** This article analyzes the current state, opportunities, and challenges of language learning based on Artificial Intelligence. In particular, it highlights the role of AI technologies in developing language competence, enabling personalized learning, and improving learners' self-regulated learning skills. At the same time, the study examines several challenges, including overreliance on technology, data privacy concerns, and maintaining pedagogical balance. The findings suggest that effective integration of AI can significantly enhance the quality and efficiency of language learning processes.

**Keywords:** artificial Intelligence, language learning, language competence, digital technologies, personalized learning, online education, teaching methodology, automated learning, challenges and opportunities

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangi o'qitish usullarimi shakllantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun'iy

intellekt texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi til o'rganish sohasida tub burilish yasamoqda.

**Asosiy qism.** Sun'iy intellekt raqamli texnologiyaning bir qismi sifatida til o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu orqali biz nafaqat til o'rganish, balki rivojlanib borayotgan texnologiyalarining keng ko'lamli ekanligini anglashga sazovor bo'lamiz. Masalan, David Crystalning "Language and the Internet" - Cambridge 2006 asarida internet til rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangi kommunikativ muhit yaratadi deb izohlanadi. [1, 89-bet]

Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar tabiiy tilni qayta ishlash, nutqni tanish va mashina tarjimasini kabi jarayonlarni amalga oshirish orqali til o'rganish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Biroq, ushbu texnologiyalar hali to'liq mukamallikka erishmagan bo'lib, ularni yanada rivojlantirish lozim [Jurafskiy & Martin "Speech and Language Processing" 2, 1-bet] Demak, sun'iy intellekt bizning til o'rganishimizda yaratgan qulayliklariga qaramay, bir nechta kamchiliklari ham mavjud. Biz AI yordamida lug'atlarni osson yo'l bilan eslab qolishni, til o'rganishning qiziqarli yo'llarini topishimiz mumkin. Ammo, AI yangilanmasa undan doimiy foydalanadigan har qanday til o'rganuvchi zamondan orqada qolishi tayin. Chunki barcha zamonaviy texnologiyalar inson tomonidan yaratiladi. Boshqa tomondan, til kompetensiyasi shaxsning samarali muloqot qilish qobiliyatini ifodalaydi [3, 45-bet] Bu kompetensiya nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki fikrni aniq, ravon va maqsadga muvofiq tarzda ifodalash, turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri til birliklaridan foydalanish hamda suhbatdoshni tushunish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. [4,57-bet]

**Xulosa.** Sun'iy intellekt asosida til o'rganish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U til o'rganishda katta imkoniyatlar yaratib, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning muammolarini ham inobatga olish zarur. Zero, kelajakda AI texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali til o'rganish yanqada qulay bo'lishi uchun.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Crystal David. Language and the Internet-Cambridge University Press, 2006
2. Jurafskiy, D Martin. Speech and Language Processing — Pearson/Prentice Hall, 2021
3. Mahmudov, N. Til va nutq madaniyati — Toshkent, 2018
4. Safarov,SH. Kognitiv tilshunoslik asoslari. — Toshkent, 2019